


“TASDIQLAYMAN”
Jamoatchilik kengashi raisi


A. Ishanxodjayev

2025-yil 18 -mart

Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig'ilishi
BAYONI

2025-yil 14 -mart

2 -son

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi: A. Ishanxodjayev, Kengash raisi, O'zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi

Ishtirok etganlar: Jamoatchilik kengashi a'zolari (ro'yxat bo'yicha)

Taklif etilganlar: Raqamli texnologiyalar vazirligi rahbariyati, Vazirlik markaziy apparatining tegishli boshqarma va bo'linmalari rahbarlari

Yig'ilish o'tish joyi: Raqamli texnologiyalar vazirligi majlislar zali

Kengash raisi yig'ilish kun tartibini muhokamaga qo'ydi va Kengash a'zolari tomonidan kun tartibi bir ovozdan qabul qilindi.

Kengashning 21 nafar a'zosidan 20 nafari (kvorum) ishtirok etayotganligini inobatga olib, mazkur yig'ilish vakolatli ega deb hisoblanadi.

KUN TARTIBI:

I. 2024-yilda Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

II. Raqamli texnologiyalar vazirligida 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

III. 2024-yilda Raqamli texnologiyalar vazirligi faoliyatining ommaviy axborot vositalari, o'z rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali yoritilishi to'g'risida

(J.Maxsudov, A. Ishanxodjaev, H.Muhitdinov, R.Asqarov, G'.Ziyayev, A.Fayzullayev, R.Mamatqulov, H.Ermatov, A.Djalalov,... J.Maxsudov)

Yig'ilishni O'zbekiston axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi raisi, Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi raisi A.Ishanxodjaev kirish so'zi bilan

ochib, Jamoatchilik kengashi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmonining 9-bandi hamda mazkur Farmonning 8-bandida nazarda tutilgan talablar asosida Vazirlikning 2024-yil 30-sentabrdagi 194-son buyrug'i bilan qayta tashkil etilganligini, yangilangan tarkibga O'zbekiston axborot texnologiyalari korxona va tashkilotlari assotsiatsiyasi ijrochi direktori Y.Moxova, Xalqaro press-klub raisi J.Usmanovlar kiritilganligini ma'lum qildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmonining 7-bandi 4-xatboshisiga asosan, har yili kamida bir marotaba sohaviy fuqarolik jamiyati institutlari vakillari bilan ochiq muloqot o'tkazilishini tashkil qilish choralari ko'rish belgilangan bo'lib, mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida 2024-yil 5-sentabr, 3-oktabr, 31-oktabr, 1-noyabr, 28-30-noyabr, 10-11-dekabr kunlari Raqamli texnologiyalar vazirligi vakillari tomonidan fuqarolik jamiyati instituti vakillari, shuningdek, yoshlar, fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlari uchun ochiq muloqot – sayyor qabullar tashkil qilindi. Mazkur muloqotlar davomida raqamlashtirish, elektron hukumat, telekommunikatsiya, pochta aloqasi, raqamli ta'lim sohalarida Vazirlik tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berildi. Fuqarolik jamiyat institutlari vakillari, yoshlar, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining tashabbuslari, takliflari, shuningdek, ularning sohaga oid muammolari o'rganilib, ushbu masalalarni hal qilish bo'yicha zarur choralar ko'rildi. Amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Vazirlikning 2024-yil 12-dekabrdagi 09-8/8475-son xati bilan Vazirlar Mahkamasiga ma'lumot kiritildi.

Shundan so'ng kun tartibidagi masalalar yuzasidan mas'ullar tomonidan zarur ma'lumotlar taqdim qilindi.

I. 2024-yilda Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

(J.Maxsudov, A. Ishanxodjaev, H.Muhitdinov, R.Asqarov, G'.Ziyayev, A.Fayzullayev, R.Mamatqulov, H.Ermatov, A.Djalalov,... J.Maxsudov)

Kun tartibidagi ikkinchi masala yuzasidan Raqamli texnologiyalar vazirining o'rinbosari J.Maxsudov so'zga chiqib, o'tgan 2024-yilda Vazirlik tomonidan raqamli hukumatni rivojlantirish, aholini telekommunikatsiya xizmatlari bilan ta'minlash, yoshlarni ITga qiziqtirish orqali raqamli ta'lim ishtirokchilari sonini oshirish, pochta aloqasi va boshqa sohalarida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida quyidagilarni ma'lum qildi:

1. Aloqa, axborotlashtirish va raqamli texnologiyalar sohasining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari:

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida IT-Park rezidentlari tomonidan 630,0 mln dollarlik xizmatlar eksport qilindi (o'sish 1,8 barobar, 2023-yil 344,0 mln dollar).

2024-yil yakuniga qadar IT-Parkning 2500 ta rezidentlari tomonidan ish bilan ta'minlanganlar soni 38 ming nafarga yetkazildi, jumladan 2024-yilda 12 ming nafar aholi ish bilan ta'minlandi.

2. Raqamli industriyani rivojlantirish, mahalliy va xorijiy kompaniyalar uchun qulay sharoitlar yaratish:

Joriy yilda IT-Park rezidenti sifatida ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni 2500 taga yetkazildi. Shundan 622 tasi (o'sish 146 foiz, 2023-yil 426 ta) IT-Park rezidenti bo'lgan xorijiy IT-kompaniyalar (xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar) hisoblanadi.

Yagona darcha (one stop shop) tamoyili asosida 2024-yilda 115 ta (o'sish 205 foiz 2023-yil 56 ta) kompaniyalar tomonidan yuridik shaxs tashkil etish bo'yicha arizalar kelib tushgan, jumladan, Rossiya Federatsiyasi - 26 ta, Gruzziya - 9 ta, Yaponiya - 9 ta, AQSh - 7 ta, Belarus - 7 ta.

IT-Park rezidentlariga IT-Park Direksiyasida yuridik shaxsning pochta (yuridik) manzili sifatida e'tirof etiladigan "Virtual ofis" berish tartibini joriy qilindi.

Hozirgi kunga qadar 82 ta (o'sish 186,4 foiz, 2023-yil 44 ta) IT-Park rezidenti bilan "Virtual ofis" xizmatidan foydalanib kelmoqda.

2024-yilda 212 nafar (2023-yil 337 ta) xorijiy fuqaroga IT-viza taqdim etildi. Bugungi kunga kelib mazkur dasturdan jami 1000 nafarga yaqin xorijiy fuqaroga IT-viza taqdim etilgan.

3. Startap loyihalarni qo'llab-quvvatlash:

Startaplarni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida 2024-yilda davomida 5 ta inkubatsiya va akseleratsiya dasturi tashkil etilib, ularda 75 ta startap loyihalari qamrab olindi.

Shuningdek, joriy yil davomida 20 ta startap 200 million dollar miqdorida venchur moliyalashtirishni jalb qildi. Ushbu investitsiyalarning 60% ixtisoslashgan xorijiy fondlardan kelgan.

Startaplarni yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida 2024-yil 1-7-dekabrda "Digital Startup Week" dasturi doirasida bir qator tadbirlar o'tkazildi. Hafta davomida "President Tech Award tanlovining final bosqichi ham bo'lib o'tdi.

4. Telekommunikatsiya va raqamli infratuzilmani rivojlantirish:

Xalqaro va shaharlararo telekommunikatsiya tarmog'ini rivojlantirish maqsadida, Xalqaro Internet tarmog'iga ulanishning umumiy o'tkazuvchanlik qobiliyati 16,6 foizga oshirilib, 4 200 Gbit/s.ga (2023-yil 3600 Gbit/s.) yetkaziladi.

Shuningdek, 2024-yilda qo'shimcha 56,9 ming km. (o'sish 113,8 foiz, 2023-yil 50 ming km.) optik-tolali aloqa liniyalarini qurish orqali ularning umumiy uzunligi 293,1 ming km.ga (o'sish 124,2 foiz, 2023-yil 236 ming km.) yetkaziladi;

2024-yil yakunida 299 mingta (2023-yil 700 mingta) uy xo'jaliklari, tadbirkorlik subyektlari va ijtimoiy soha ob'ektlarining keng polosali Internetga ulanish imkoniyati yaratildi jami portlar soni 5.8 mln.taga. (o'sish 105,4 foiz, 2023-yil 5.5 mln.ta) yetkazildi.

2020-yildan buyon O'zbekistonda internet tezligi sezilarli darajada oshdi: mobil internetning o'rtacha tezligi qariyb olti barobarga ko'tarilib, 38.96 Mbit/s ga yetdi, simli internet tezligi esa 72.99 Mbit/s ni tashkil etdi. Bu O'zbekistonga jahon reytingida Speedtest Global Index bo'yicha mobil internet tezligida 133-o'rindan 68-

o'ringa, simli internet tezligida esa 122-o'rindan 74-o'ringa ko'tarilish imkonini berdi.

5. Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlar:

Sun'iy intellektni qo'llagan holda davlat va moliya xizmatlarini ko'rsatishda biometrik identifikatsiyalash uchun "My ID" tizimi ishlab chiqildi va ishga tushirildi.

Bugungi kunda "My ID" tizimi 29 ta bank (*umumiy banklarning 82 foizi*), 5 ta davlat tashkilotlari, 16 ta to'lov tizimlari, 9 ta marketpleys, 6 ta mobil operatorlar, 40 dan ortiq boshqa sohadagi korxonalar, jami 100 dan ortiq tashkilotda o'rnatilib, 12 mln.dan ortiq foydalanuvchi ro'yxatdan o'tkazildi.

"MyID Palm" odamning kaftini identifikatsiyalash asosida elektron to'lov texnologiyasi yaratilib, hozirgi kunda sinovlar muvaffaqiyatli o'tkazildi va har bir metro bekatidagi turniketlarga insonning kaft tomirlarini skanerlash uchun mo'ljallangan qurilmalar hamda "MyID Palm" tizimida ro'yxatdan o'tishni ta'minlash uchun 30 ta bekatda 30 ta inson kaftini ro'yxatga olish infokiosklari o'rnatildi;

"UzFace" tizimi ichki ishlar organlari uchun yaratilgan bo'lib jamoat joylarida aholini shaxsini aniqlash maqsadida tajriba – sinov tariqasida ishga tushirildi.

2024/2025-o'quv yili uchun "Sun'iy intellekt" yo'nalishida kadrlar tayyorlash bo'yicha jami 13 ta oliy ta'lim muassasalarida 1050 ta (1018 ta bakalavr, 32 ta magistratura) kvotalar ajratildi;

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida faoliyat yurituvchi 27 nafar, shu jumladan 1 nafar akademik, 6 nafar fan doktori (DSc), 6 nafar falsafa doktori (PhD) yoki fan nomzodlari faoliyat yuritadi.

6. "Raqamli hukumat" tizimini rivojlantirish hamda davlat va raqamli xizmatlarni joriy etish:

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YaIDXP) orqali 700 turdagi (o'sish 123 foiz, 2023-yil 570 ta) xizmat onlayn shaklda ko'rsatilishi yo'lga qo'yilgan.

Bugungi kunda mazkur portalda ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni 10 milliondan ortgan. Shuningdek, portal va mobil ilovasi foydalanuvchilari tomonidan portal xizmatlaridan yil boshidan jami 32 mln. marotaba (o'sish 152 foiz, 2023-yil 21 mln.marotaba) foydalanilgan.

Shu bilan birga, Yagona portalning mobil ilovasida 476 ta (o'sish 180 foiz, 2023-yil 265 ta) elektron davlat xizmatlari aholi va yuridik shaxslarga taqdim etilmoqda.

Raqamli hukumatning ma'lumotnomalar va klassifikatorlar registriga bugungi kunga kelib 20 ta (o'sish 143 foiz, 2023-yil 14 ta) tashkilot tomonidan 56 ta (o'sish 116 foiz, 2023-yil 48 ta) klassifikatorlar kiritilgan.

"Raqamli hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasida servislar soni 260 taga (o'sish 163 foiz, 2023-yil 160 ta) yetkazildi.

Yagona idoralararo ijro intizomi "ijro.gov.uz" tizimining foydalanuvchilari soni 117 ming (o'sish 117 foiz, 2023-yil 100 ming) nafardan oshdi.

7. Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat hamda xo‘jalik boshqaruvi organlarida raqamlashtirish loyihalarini amalga oshirish, axborot tizimlari va resurslarini joriy etish.

Davlat organlari va tashkilotlari xodimlari uchun ma'muriy tartib-taomillarni optimallashtirish va boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish – "Digital office" elektron tizimi ishlab chiqilib, tajriba sinov tarzida joriy etildi.

Toshkent viloyatida Raqamli hukumatning ma'lumotlarni qayta ishlash markazi (300 ta stoyka) faoliyati yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda quyidagi axborot tizimlari joylashtirilgan:

Vazirlik tomonidan barcha murojaatlarni bitta nuqtada ruyxatdan o'tkazish va monitoring qilish imkonini beruvchi Yagona onlayn platforma ishlab chiqilib joriy yil sentabr oyida murojaat.gov.uz manzilida ishga tushirildi.

Reyting baholarni shakllantirishni avtomatlashtirish uchun reytingli baholash axborot tizimi takomillashtirildi.

Sohada amalga oshirilayotgan ishlar natijasida O'zbekiston 2024-yilda Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida (E-Governmen Development Index – "EGDI") avvalgi hisobot davriga nisbatan 6 pog'onaga ko'tarilib, dunyodagi 193 ta davlat orasida 63-o'rinni egalladi. Bunda, mamlakatimiz elektron hukumat sohasida rivojlanish bo'yicha "yuqori" guruhdan "juda yuqori" guruhga ko'tarilgan 17 ta davlatlar qatoridan joy oldi va dengizga chiqish imkoni bo'lmagan rivojlanayotgan mamlakat orasida 4-o'rinni egalladi.

8. Pochta aloqasini rivojlantirish:

Elektron tijorat sohasida faol ishtirok etishni ta'minlash maqsadida, Toshkent shahridan viloyat, tuman markazlarigacha 24 soat ichida yetkazib berish bo'yicha "Bir qadam" xizmati (oluvchining manziliga yetkazib berilmaydi) yo'lga qo'yildi.

Mazkur xizmat 200 dan ortiq (o'sish 6 barobar, 2023-yil 30 ta) pochta aloqasi ob'ektlarida yo'lga qo'yilib, joriy yil yakuniga qadar 100,0 mingdan ortiq (o'sish 11 barobar, 2023-yil 8500 ta) jo'natmalar yetkazib berildi.

Pochta aloqasi xizmatlarini foydalanuvchilarga imkon qadar yaqinlashtirish va ulardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llagan holda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek, pochta aloqasi bo'limlarida ko'rsatiladigan qator xizmat turlarini aloqa bo'limlaridan tashqarida real vaqt rejimida ko'rsatish bo'yicha "Mobil pochta" xizmati yo'lga qo'yildi.

Mazkur xizmatni 500 tadan ortiq pochta xizmat ko'rsatish hududida (*pochta aloqasi bo'limlaridan tashqarida*) pochta xizmatlarini ko'rsatmoqda.

9. Raqamli texnologiyalar sohasida ta'limni rivojlantirish, jumladan kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida Xorazm viloyatida tajriba tariqasida "Muhammad al-Xorazmiy vorislari" loyihasi joriy etildi.

Mazkur loyiha doirasida IT-sohasiga qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlar saralab olinadi, ular darsdan tashqari vaqtda birinchi bosqichda 13 ta raqamli texnologiyalar o'quv markazlari (IT-Park filiallari)da va ikkinchi bosqichda esa 31 ta umumta'lim maktablarda jami 4 200 nafardan ziyod (o'sish 350 foiz, 2023-yil 1200 nafar)

7-11-sinf o'quvchilari saralab olinib, axborot texnologiyalari va ingliz tili bo'yicha ta'lim olishlari yo'lga qo'yildi.

Iqtisodiyotning turli sohalarida raqamlashtirishda faol ishtirok etadigan iqtidorli yoshlarni tayyorlash maqsadida "Mirzo Ulug'bek vorislari" tayyorlov o'quv kurslari tashkil etildi. Ushbu kurslarga 60 nafar (2023-yil 60 nafar) talaba yoshlar saralab olinib, ular dasturlash tillari, ma'lumotlar tahlili va ingliz tiliga o'qitildi.

Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni yanada kengroq qo'llash maqsadida Toshkent moliya instituti va Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabalari uchun universal bank kartasi – "Talaba kartasi" pilot loyihasi ishga tushirildi. Mazkur ikki muassasalarining 50 mingga yaqin (o'sish 119 foiz, 2023-yil 42 ming) talabalariga "Talaba kartasi" taqdim etildi.

"IT-bilimlarini rivojlantirish markazi" tomonidan IT-Park rezidenti bo'lgan xususiy o'quv markazlarini rivojlantirish uchun 3 yilgacha bo'lgan muddatga va bilgi.uz ta'lim platformasi yordamida yoshlarning IT yo'nalishida o'qishlari va malaka oshirishlari uchun 6-18 oy muddatga maqsadli qarz ajratish mexanizmi yo'lga qo'yilgan.

Joriy yilda IT-Parkning rezidenti bo'lgan xususiy o'quv markazlari soni 52 taga ko'payib, 278 taga yetdi.

2024-yilning 1-8-sentabr kunlari Misrda bo'lib o'tgan 36-xalqaro informatika olimpiadasi hamda 21-27 iyul kunlari Niderlandiyada bo'lib o'tgan Informatika fanidan Yevropa qizlar olimpiadasida (*O'zbekiston jamoasi 1-marta qatnashdi*) ushbu o'quvchilar tomonidan bronza medallari qo'lga kiritildi.

"Bir million dasturchi" loyihasini mantiqiy keyingi bosqichini amalga oshirish maqsadida maqsadida uzbekcoders platformasi orqali "Coursera onlayn kurslarida yoshlar uchun ta'lim olish imkoniyati yaratildi.

2024-yilda 239 ming nafardan ortiq (2023-yil 620 ming nafar) yoshlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan 101 ming nafar (2023-yil 215 ming nafar) yoshlar bitirib boshlang'ich IT-sertifikatlarni qo'lga kiritishgan. Shuningdek, 1432 nafardan ortiq (o'sish 119,3 foiz, 2023-yil 1200 ta) yoshlar platformaning professional kurlarida ta'lim olishdi.

2024-yilning 29-noyabr kuni "Bir million dasturchi" loyihasining navbatdagi bosqichiga start berildi. Mazkur bosqichda yoshlar uchun 5 ta yo'nalishda bepul o'qish imkoniyati hamda 12 mingdan ortiq professional kurslarda imtiyozli ta'lim olishlari yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" 2024-yil 21 fevraldagi PF—37-son Farmoni va "Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 26 fevraldagi PQ—87-son qaroriga asosan 2024-yilda 60 ming nafar yoshlar ingliz tiliga hamda 10 ming nafar yoshlar nemis va boshqa chet tillariga o'qitildi.

Shu bilan birga, "Maktab 21" loyihasi joriy etilib, bunda 18 yoshdan katta va IT sohasiga qiziquvchilar dasturlar ko'nikmalariga tayyorlab boriladi. Joriy yilda O'zbekistonning ikki shahrida — Samarqand va Toshkent shaharlarida ushbu ta'lim

muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi (*Toshkent kampusi 2024-yil 2 oktabrdan faoliyat boshladi*). Mazkur muassasalarda ta'lim olish uchun 35 000 dan ortiq arizalar qabul qilingan. Ularning 2200 nafari saralash intensivlarini o'tdilar. Ushbu yoshlar C, C++, Java, Python, Go, SQL dasturlash tillarini o'zlashtirmoqda.

Bundan tashqari, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning hududiy filiallarida (keyingi o'rinlarda – TATU) bugungi kunda 934 nafar (2023-yil 981 nafar) professor-o'qituvchilar faoliyat yuritib kelmoqda.

TATU va uning hududiy filiallarida 56 nafar (2023-yil 64 nafar) fan doktori hamda 326 nafar (2023-yil 348 nafar) fan nomzodi faoliyat yuritib kelmoqda. Jumladan, professor-o'qituvchilarining umumiy ilmiy salohiyatining joriy holati 40,9 foizni tashkil qilmoqda va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 foizga oshganligini ko'rsatadi.

2023-yilda TATU QS xalqaro reyting tashkiloti tomonidan QS Stars nominatsiyasi bo'yicha o'tkazilgan audit tekshiruviga ko'ra 4 Yulduzli Universitet maqomiga ega bo'ldi.

Shuningdek, THE (Times Higher Education) xalqaro reytingida ilk bor TATU universiteti joy egalladi. Unga ko'ra universitet dunyo universitetlari xalqaro reytingida (WUR) TOP-1501+ o'rinni, Markaziy Osiyo va Kavkazorti davlatlari universitetlari bo'yicha TOP-5 o'rinni, O'zbekiston Oliy ta'lim muassasalari orasida TOP-3 o'rinni egalladi.

TATUda Yongnam, Kukmin va Sejong universitetlari bilan qo'shma ta'lim dasturlari yo'lga qo'yildi.

2024-yilda TATUning 15 nafar bitiruvchilari xorijiy davlatlarning nufuzli oliygohlariga magistratura va PhD dasturlarida ta'lim olish huquqini qo'lga kiritdi.

Toshkent shahridagi Inxa universitetida 2 ta (*Kompyuter va dasturiy injiniring, Logistika va biznes boshqaruvi*) bakalavriat ta'lim yo'nalishi hamda 1 ta (*Raqamli transformatsiya*) magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda.

Bugungi kunda Inxa Universitetida jami 40 nafar professor-o'qituvchilar faoliyat olib boradi. Ularning 17 nafari Koreya va boshqa xorijiy mamlakatlardan taklif qilingan bo'lib, jami 11 ta fan doktori (DSc) va 12 ta fan nomzodi (PhD) hamda 17 ta ilmiy darajasiz professor-o'qituvchilardir.

Toshkent shahrida Amiti universiteti 2019/2020-o'quv yilidan boshlab o'z faoliyatini boshlagan. 25 nafar professor-o'qituvchilardan 22 nafari PhD ilmiy darajasiga ega, 22 nafari chet el fuqarolari hisoblanadi.

Amiti universitetida talabalarni qabul qilish bo'yicha 2024/2025-o'quv yili uchun 400 ta (o'sish 155 foiz, 2023-yil 258 ta) kvota belgilangan. Shuningdek, Amiti universitetiga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2024/2025-o'quv yillarida 40 nafar talabaga davlat granti ajratildi.

Amiti universitetining bitiruvchi talabalari uchun Kar'era markazida 90 ta kompaniya tomonidan 500 ga yaqin bo'sh ish o'rinlari taklif etilgan. 55 foiz bitiruvchi talabalar o'quv davrining o'zidayoq doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlangan, 16 foiz bitiruvchi talabalar magistratura bosqichida o'qishni davom ettirishga xohish bildirgan, 15 foiz bitiruvchi talabalar turli soha tashkilotlarida amaliyot o'tab kelmoqda.

II. Raqamli texnologiyalar vazirligida 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida

(J.Maxsudov, I.Turayev, A. Ishanxodjaev, H.Muhitdinov, R.Asqarov, G'.Ziyayev, A.Fayzullayev, R.Mamatqulov, H.Ermatov, A.Djalalov,... J.Maxsudov)

Mazkur masala yuzasidan Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i I.Turayev so'zga chiqib, Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati, Vazirlik faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti, Vazirlikda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom, Vazirlikda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti, Vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom, Vazirlik xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament, Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi faoliyati to'g'risidagi nizom, Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etishga undash holatlari haqida xabar berish, ularni ro'yxatga olish, ko'rib chiqish hamda ularga qarshi kurashishdagi xodimlarning faol ishtiroki uchun rag'batlantirish to'g'risida tartib kabi ushbu yo'nalishga oid qator hujjatlar qabul qilinganligini, Vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilishida Vazirlik markaziy apparatining 38 ta boshqarma va bo'limlaridan iborat tashkiliy tuzilmalari hamda tasarrufidagi 26 ta tizim tashkilotlar bevosita ishtirok etganligini va quyidagilarni ma'lum qildi:

baholash jarayonida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning toifalar bo'yicha nisbati 8 ta funksiyasi yuqori, 122 ta funksiya o'rta jdarajadagi toifalarga egaligi aniqlangan; rejalashtirilgan manfaatlar to'qnashuvining har yillik deklatsiyalanadigan manfaatlar to'qnashuviga nisbatan ko'rsatkichlari to'liq 100 foiz bajarilgan;

O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi, "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunlari ijrosi doirasida Vazirlik tomonidan bir qator hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etish yuzasidan 18 banddan iborat "Yo'l xaritasi", uni amalga oshirish bo'yicha 15 banddan iborat "Idoraviy dastur" ishlab chiqilgan va belgilangan muddatlarda tegishli davlat organlariga ma'lumotlar taqdim etib borilgan;

2023-yil noyabr oyida vazirlikka ISO 37001:2016 va 9001:2015 xalqaro standartlari joriy qilingan;

2024-yil hisobot davrida Vazirlik faoliyatiga oid ta'minotchi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan jami 118 ta shartnoma, shundan 36 tasi to'g'ridan-to'g'ri, 82 tasi elektron do'kondan xo'jalik shartnomalari tuzilgan;

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi tomonidan xo'jalik shartnomalarini o'rganishlar davomida manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmagan;

hisobot davrida markaziy apparat va hududiy shu'balarga jami 31 nafar xodim ishga qabul qilingan;

2024-yilda 286 nafar xodim bilim va malakasini umumiy va maxsus o'quv kurslarida o'qitilgan;

Vazirlikning 25 nafar xodimi 2024-yilning yanvar-dekabr oylarida xorijiy davlatlarga tajriba almashishga yuborilgan, 15 nafar xodim malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari, treninglar va seminarlarga jalb etilgan;

2024-yil 13-dekabr kuni "Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish" mavzusida profilaktik yig'ilish o'tkazildi;

6 ta tashkilotda nazorat tadbirlari o'tkazilgan, ushbu tadbirlarda 71 nafar xodim moliyaviy va boshqa kamchiliklarga yo'l qo'ygani sababli ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilgan;

2024-yilning sentabr oyida Vazirlik bo'linmalari faoliyatida Xalqaro ISO 37001:2016 va 9001:2015 standartlariga muvofiqligi ichki va tashqi auditdan o'tkazilgan va muddati uzaytirib berilgan;

Vazirlik tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish, unga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida yil davomida 12 ta targ'ibot tadbiri (ommaviy axborot vositalari orqali huquqiy targ'ibot 4, og'zaki huquqiy targ'ibot 8, manzilli targ'ibot (mehnat jamoalarida-8), tinglovchilar soni 900 nafar, ko'rgazmali huquqiy targ'ibot 6, animatsion grafika 4) o'tkazilgan.

III. 2024-yilda Raqamli texnologiyalar vazirligi faoliyatining ommaviy axborot vositalari, o'z rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali yoritilishi to'g'risida

(J.Maxsudov, Sh.Axmatov, A. Ishanxodjaev, H.Muhitdinov, R.Asqarov, G'.Ziyayev, A.Fayzullayev, R.Mamatqulov, H.Ermatov, A.Djalalov,... J.Maxsudov)

Mazkur masala yuzasidan Vazirlik axborot xizmati rahbari Sh.Axmatov so'zga chiqib, quyidagilarni ma'lum qildi:

Aholi va keng jamoatchilikka muntazam ravishda dolzarb axborot yetkazib berish uchun turli tadbirlarni (matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar, taqdimotlar va b.) tashkil etish yo'nalishida jami 595 ta turli ko'rinishdai materiallar e'lon qilingan. Jumladan, yanvarda 53, fevralda 39 ta, martda 42 ta, aprelda 57, mayda 46 ta, iyunda 48 ta, iyulda 52 ta, avgustda 32 ta, sentyabrda 57 ta, oktabrda 62 ta, noyabrda 65 ta, dekabrda 42 ta.

Axborot xizmati rahbari ishtirokida jami 136 ta onlayn efir tashkil qilingan bo'lib, I chorakda 27 ta, II chorakda 33 ta, III chorakda 39 ta, IV chorakda 37 tani tashkil etadi.

Tashkilot rahbarlari ishtirokidagi tadbirlarni yoritish maqsadida 597 ta turli janrdagi materiallar tayyorlangan va e'lon qilingan. Jumladan, yanvarda 51, fevralda 41 ta, martda 47 ta, aprelda 56, mayda 46 ta, iyunda 50 ta, iyulda 51 ta, avgustda 32 ta, sentyabrda 57 ta, oktabrda 61 ta, noyabrda 63 ta, dekabrda 42 ta.

Aholi va keng jamoatchilikka muntazam ravishda axborotni yetkazib berishda tele-radio kanallar bilan hamkorlik qilish va soha mutaxassislarning ishtirokini ta'minlab berish maqsadida matbuot nashrlarida jami 95 ta turli materiallar e'lon

qilingan bo'lsa, telekanallar orqali 130 ga yaqin reportaj, lavha va boshqa mediamahsulotlar namoyish etildi.

Sohaga oid muammolarni birinchi manba sifatida yoritish maqsadida jami 589 ta material e'lon qilindi. Jumladan, yanvarda 46, fevralda 38 ta, martda 41 ta, aprelda 56, mayda 47 ta, iyunda 48 ta, iyulda 54 ta, avgustda 32 ta, sentyabrda 57 ta, oktabrda 64 ta, noyabrda 63 ta, dekabrda 43 ta.

Vazirlikning faoliyati bo'yicha ommaviy axborot vositalarida qilingan tanqidlarga jami 253 ta javob qaytarilgan. Jumladan, yanvarda 21, fevralda 27 ta, martda 23 ta, aprelda 25, mayda 29 ta, iyunda 21 ta, iyulda 20 ta, avgustda 26 ta, sentyabrda 15 ta, oktyabrda 14 ta, noyabrda 17 ta, dekabrda 15 ta.

Tashkilot rahbari yoki axborot xizmati rahbarlari jami 192 ta muayyan axborot voqeligi munosabati bilan rasmiy bayonot bergan. Jumladan, I chorakda 28 ta, II chorakda 34 ta, III chorakda 67 ta, IV chorakda 63 ta.

Xorijiy ommaviy axborot vositalarida Vazirlik va sohaga oid jami 62 ta turli janr va ko'rinishdagi materiallar e'lon qilingan. Jumladan, I chorakda 11 ta, II chorakda 10 ta, III chorakda 26 ta, IV chorakda 15 ta.

Yig'ilish ishtirokchilari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar, takliflar asosida **qaror qilindi:**

1. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmonining 9-bandi hamda mazkur Farmonning 8-bandida nazarda tutilgan talablar asosida Vazirlikning 2024-yil 30-sentabrdagi 194-son buyrug'i bilan qayta tashkil etilganligi, yangilangan tarkibga O'zbekiston axborot texnologiyalari korxona va tashkilotlari assotsiatsiyasi ijrochi direktori Y.Moxova, Xalqaro press-klub raisi J.Usmanovlar kiritilganligi;

2024-yil 5-sentabr, 3-oktabr, 31-oktabr, 1-noyabr, 28-30-noyabr, 10-11-dekabr kunlari Raqamli texnologiyalar vazirligi vakillari tomonidan fuqarolik jamiyati instituti vakillari, shuningdek, yoshlar, fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlari uchun ochiq muloqotlar – sayyor qabullar tashkil qilinganligi;

Raqamli texnologiyalar vaziri o'rinbosari J.Maxsudovning 2024-yilda Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida to'g'risidagi axboroti;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i I.Turayevning Raqamli texnologiyalar vazirligida 2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi axboroti;

Vazirlik Axborot xizmati rahbari Sh.Axmatovning 2024-yilda Raqamli texnologiyalar vazirligi faoliyatining yoritilishi to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kengash ishchi organi (N.Abdullayev):

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 26-avgustdagi PF-124-son Farmonida "Yuksalish" harakatiga har yili jamoatchilik kengashlari faoliyat samaradorligini baholash va uning natijalarini o'z rasmiy veb-sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilib borish tavsiya etilganligini inobatga olib, Harakat bilan yaqin hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish;

Jamoatchilik kengashi yig'ilish o'tkazilganligi haqidagi ma'lumotlarning O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi, "Yuksalish" harakati hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga kiritish;

Vazirlik axborot xizmati (Sh.Axmatov) bilan birgalikda Jamoatchilik kengashi yig'ilishi o'tkazilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar Vazirlikning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari hamda boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritilishini tashkil qilish;

mazkur bayonni Jamoatchilik kengashi a'zolariga yetkazish choralarini ko'rsin.

Kengash kotibi

N. Abdullayev